

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIMIY TARBIYAVIY QARASHLARINING FARZAND TARBIYASIDAGI AHAMIYATI**Musurmonova Navro`zoy G`ofur qizi**

Toshkent davlat pedagogika universiteti maktabgacha ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi
navrozoymusurmonova@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning ta'lim tarbiyaga oid qarashlari hamda asarlari va ularning farzand tarbiyasidagi muhim ahamiyati haqida keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, kitob, farzand, "Turkiy guliston yohud ahloq", jamiyat, ota-ona, mahalla, zehn, pedagogika, milliylik, haqiqat, fikr tarbiyasi, tarbiyaning zamoni, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi.

Аннотация: В данной статье представлены взгляды и труды Абдуллы Авлони на образование и их значение в воспитании детей.

Ключевые слова: образование, книга, ребенок, «Турецкая культура и мораль», общество, родители, соседство, разум, педагогика, национальность, истина, воспитание мысли, время воспитания, физическое воспитание, воспитание мысли.

Annotation: This article presents the views and works of Abdulla Avloni on education and their importance in raising children.

Key words: education, book, child, "Turkish culture and morality", society, parents, neighborhood, mind, pedagogy, nationality, truth, education of thought, time of education, physical education, education of thought.

Bizga ma'lumki, har bir millat o'z tarixi va kelajagiga ega. Kelajakning ahamiyati tarix bilan chambarchas bog'liqdir. Biz o'z tariximizga nazar soladigan bo'lsak, turli sohalarda o'z mehnatlari bilan dunyoga tanilgan ajdodlarimizni ko'ramiz. Shunday ajdodlarimizda biri ta'lim va tarbiyaga oid, ayniqsa, hozirgi jamiyatimizda katta-yu kichik birdek foydalana oladigan qimmatli asarlarini qoldirgan, mashhur o'zbek ma'rifatparvari, shoiri, jamoat arbobi, jadidchilik harakatlarining ulug' namoyondasi Abdulla Avloniy 1878-1934-yillarda yashab ijod qilgan. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari, o'z asarlarida qo'llagan axloqiy sifatlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langan. Ijodkorning asarlari orqali farzandlarga beriladigan tarbiyaning ham muhim belgilarini o'rganish mumkin.

Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo'limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.
4. Axloq tarbiyasi hamda uning ahamiyati xususida fikr yuritadi.

Endi bu bo'limlarga alohida to'xtalib o'tsak. Tarbiyaning zamoni bu muhim masaladir, ya'ni bola ona qornidan boshlab tarbiyalanishi lozim. Bolaning tarbiyasiga har bir unga ta'sir etgan narsa katta ta'sir qiladi. Bolani ulg'ayganicha jiddiy e'tibor bilan tarbiyalasangiz, undan keyin u o'zini o'zi tarbiyalay boshlaydi. Shu holatga kelguncha, albatta, ota-onaning tarbiyali bo'lishi muhim.

Tarbiyada kuchli e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihat bu badan tarbiyasidir. Bolaning salomatligi va sog'lom hayoti uchun eng kerakli tarbiyadir. Badan tarbiya bolaning qon aylanishini yaxshilaydi, kayfitini ko'taradi, o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi, nafas yo'llarida to'sqinlik bo'lmaydi, tartibga o'rganadi.

Jamiyatda bola o'z o'rnini topishda fikr tarbiyasining o'rni katta. Bola ulg'aygan sari unda orzu, maqsadlar paydo bo'lib boshlaydi. Buning uchun uning shaxsiy fikri bo'lishi, uni ko'pchilik oldida erkin bayon qila olish qobiliyati bo'lishi muhim. Bolada fikr tarbiyasini rivojlantirishda eng birinchi yordam beradigan omil kitobdir. Xalqimizda shunday fikr bor: "Siz bolaga kitob o'qishni o'rgating, tarbiyani esa kitob beradi".

Axloq tarbiyasi juda katta qamrovga ega tarbiyadir. Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- Bolalarda axloqiy xis -tuyg'ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
- Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
- Shaxsda axloqiy xis tuyg'ularni tarbiyalash
- Xulqdagi salbiy hislarni barham toptirish.

Abdulla Avloniy fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofdagi kishilar katta ahamiyatga ega. Haqiqiy insoniy axloqni o'zida barqaror qilgan yaxshi kishilar yoshlarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi va ularning mehr-shafqatli, sofdil va maqbul bo'lib tarbiyalanishi uchun zamin hozirlaydi, shuningdek, "Tarbiya xususiy ish emas, milliy ijtimoiy ishdir."- deya ta'kidlab ketgan. Bundan kelib chiqadiki, tarbiya bilan yolg'iz ota-ona emas, balki unga taaluqli bo'lgan har bir shaxs shug'ullanishi lozim. Xalqimizda ham ayni holatga shunday bir maqol bor: "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona." Shunday ekan, bola uchun har bir kattaning gapi muhimligini unga singdirishimiz lozim.

Avloniyning maktab va undagi ta'lim tarbiya haqida shunday bir she'ri bor:

Maktab hayot ehson qilur,
Maktab g'ami vayron qilur,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!
Maktabdatur ilm-u kamol,
Maktabdatur husn-u jamol,
Maktabdatur milliy xayol
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

Bu she'rda Avloniy maktabni insonning najot yo'li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch deb maqtaydi. Shuning uchun tarbiya maskani ham maktab ekani ta'kidlanadi.

Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari ichida "Turkiy guliston yoxud axloq" asari katta ahamiyatga molik axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan qaytaruvchi ilm-axloq, bola tarbiyasidagi eng muhim jihatlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, u bola tarbiyasining roli haqida asarda: "Agar bir kishi yoshligida nafi buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmoq kabidir"-deydi. Xalqimizda ham "Nima eksang-shuni o'rsan",- degan maqol bor. Bundan kelib chiqadiki, yoshlikdan xato berilgan tarbiya uchun kelajakda meva kutmaslik kerak. Bolalarda axloqiy xislatlarning tarkibi to'g'risida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolalarning atrofidagi kishilar ahamiyatga ega. Ijodkorning bu asarida yana shunday fikrlar keltirilgan " Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur". Farzandlarni ilmli qilish ota-ona oldidagi burchdir. Tarbiyaning eng buyugi bolani ilmga o'rgatishdir. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari boshidan oxirigacha insonni

ta'limtarbiyaga, axloqli bo'lishga chorlovchi asardir. Asarning boshi ham aynan "Axloq" mavzusi bilan boshlanadi.

"Axloq insonlarni yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurigan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmni o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanin, janobi Haq nima uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganin bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilub, iqrur qilub tuzatmakg'a sa'y va ko'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram afandimiz: «Mezon tarozusiga qo'yiladurigan amallarning ichida yaxshi xulqdan og'irroqi yo'qdur. Mo'min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro'za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar», – demishlar."

Shuningdek, asarda yaxshi va yomon xulq haqida ham juda foydali fikrlar aytib o'tilgan.

"Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi va yo yomon bo'ludur. Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qiluriga odat qilsa, yaxshilikg'a tavsif bo'lub, «yaxshi xulq» agar tarbiyatsiz o'sub, yomon ishlaydurgan bo'lub ketsa, yomonliqg'a tavsif bo'lub «yomon xulq» deb atalur.

«Qush uyasinda ko'rganin qiladur». Inson javhari qobildur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, go'zal xulqlarga odatlanub katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lub chiqar. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulub o'ssa, Allohdan qo'rqmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog'iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lub qolur."

Abdulla Avloniy tarbiyani tug'ulgan kundan boshlash kerakligini, aynan shu paytdan axloqimizni go'zal qilib borishimizni, zehnimizni ham ravshanlashtirishimizni "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida aytib o'tgan. Bundan tashqari, "Tarbiyani inson qayerdan olishi kerak",- degan savolga birinchi navbatda, uydan olish kerakligini va farzandiga tarbiya berish, avvalo, onaning vazifasi ekanligini ta'kidlagan. Kishiga onaning tarbiyasidan tashqari maktab va madrasaning tarbiyasi ham, bundan tashqari tarbiya berish otaning, muallimning, mudarrisning va hukumatning ham vazifasi ekanligini aytgan.

Yoshlarga ma'naviyatning ma'no-mazmunini, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini tushintirishga, ruhiy-ma'naviy oziq berish, dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qiladi. Maktablarda ham o'quvchilarning tarbiyasini yaxshilashga, ularni namunali xulqqa, axloqiy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltiruvchi turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahsmunozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, ma'naviy tarbiyaning mazmunmohiyatini o'quvchilarga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo'llanma va tavsiyalar tayyorlash kerak.

Abdulla Avloniyning bir jumla bilan tasvirlagan tarbiya haqida juda go'zal satrlari bor: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir." Shunday ekan kelajak avlodga berishimiz kerak bo'lgan eng birinchi vazifamiz tarbiya ekanligini unutmaylik. Xulosa qilib aytganda, yoshlarni yuqorida ko'rsatilgan usullar yordamida ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalash barkamol avlodni shakllantirishdagi muammolarni bartaraf etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1.Mirziyoev SH.M.Yoshlar tarbiyasida besh tashabbus.-T.: O'zbekiston, 2018 y.

- 2.Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari.T.,O'qituvchi, 1997.-256
- 3.S.P.Azarov. Tarbiyaviy ish metodikasi. Toshkent, O'qituvchi, 1991.
- 4.Ismailova Z .Q. Pedagogika. Toshkent, Moliya, 2019
- 5.Xudoyqulov X.J. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. –T.: TTYMI. 2020y